

RAQAMLI MULOQOTDA EMOJILARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA QASHSHOQLASHUVI MUAMMOSI

Xolmirzayeva Zuxra Jamshidovna

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida tilning o'zgarishi, xususan, emojilarning kundalik muloqotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida emojilarning his-tuyg'ularni ifodalashdagi afzalliklari bilan bir qatorda, ularning inson so'z boyligini cheklab qo'yish xavfi (leksik qashshoqlik) o'rganilgan. Maqola yakunida emojilardan foydalanishning lingvistik va etik chegaralari bo'yicha xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar; *emojilar, matnli muloqot, belgi, so'z, hissiy urg'u, matn, lug'at boyligi, semantik ma'no, axborot, jamiyat, tilning o'zgarishi, lingvistik va etnik chegara, yozma nutq.*

Insoniyat taraqqiyoti davomida muloqot shakllari doimiy ravishda evolyutsiya qilib kelgan. XXI asrning axborotlashgan jamiyatida yozma nutq o'zining an'anaviy shaklidan uzoqlashib, "kompyuterlashgan muloqot" (Computer-Mediated Communication) shakliga o'tdi. Bu jarayonda emojilar - his-tuyg'u, harakat va ob'ektlarni ifodalovchi piktogrammalar muloqotning ajralmas qismiga aylandi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda emojilar shunchaki bezak emas, balki til birliklarining o'rini egallayotgan strukturaviy elementga aylandi. Bu esa o'z navbatida tilning lug'at boyligi va semantik chuqurligiga xavf tug'dirmoqda.

Emojilar matnda bir necha funksiyani bajaradi. Ularning muloqotda afzalliklari ham bor, noafzalliklari ham bor. Emojilarning nutqimizda keltiradigan foydalari bular:

Hissiy urg'u: Masalan, "Yaxshi" so'zidan keyin qo'yilgan mamnun emoji javobdan qoniqishni ifodalasa, xafa emoji belgisi majburan rozi ekanligini anglatib turadi. Shu tariqa emojilar so'zning semantikasini ijobiy yoki salbiy tomonga 180 darajaga o'zgartirishi mumkin.

Tejamkorlik tamoyili: Bir necha so'zdan iborat jumlaning bitta belgi bilan almashtirish ham vaqtni tejaydi, ham inson ongiga ta'sirchanroq yetib keladi. Masalan, "men bugun qanday raqs tushdimi?" savoliga "siz bugun juda ajoyib va chiroyli raqs tushdingiz, menga juda yoqdi" deyishni o'rniga bosh barbog'i tepaga qaragan emoji yuborish fikrni aniq va dangalroq tushuntirishga hissa qo'shadi.

Matnli muloqotda ohang bo'lmagani uchun suhbatdoshlar bir-birining gapini noto'g'ri tushunishi (agressiv yoki qo'pol deb qabul qilishi) mumkin. Bu holatda emojilar masofaviy muloqotga "insoniy qiyofa" beradi. Ular orqali suhbatdoshning kayfiyatini his qilish osonlashadi, bu esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Emojilar - bu dunyodagi yagona "universal til" desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni turli tilli aholilar hammasi emoji tilini tushunadi va javob qaytaray oladi. Bundan tashqari emojilar yozma nutqni rang-barang va qiziqarliroq ko'rsatadi.

Biroq, xalq so'z boyligi orasida emojilar salbiy oqibatlarga sabab bo'layotgani ham yolg'on emas.

Emojilar ma'naviy noaniqlik va tushunmovchilikga olib kelishi mumkin.

So'zlar aniq lug'at ma'nosiga ega bo'lsa, emojilar ko'pincha subyektivdir. Masalan, bir xil emoji turli odamlar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, yig'layotgan emoji belgisini kimdir "baxtdan yig'lash", boshqa biri esa "chuqur qayg'u" deb tushunadi.

Oqibatda bu muloqotda "kommunikativ uzilish"ga (miscommunication) olib keladi.

Bosh barmoq ko'rsatish belgisi ko'p davlatlarda "yaxshi" degani bo'lsa, Yaqin Sharqning ayrim hududlarida haqoratli ma'noda qabul qilinishi mumkin. Yoki oddiy tabassum emojisi ba'zi yoshlar uchun "piching" yoki "sovuq munosabat" belgisi hisoblanadi.

Emojilar rasmiylik va etika qoidalarining buzilishiga ham olib keladi. Ular muloqotni haddan tashqari erkinlashtirib yuboradi. Misol uchun, ish hujjatlarida, rasmiy yozishmalarda yoki talaba va o'qituvchi muloqotida emojilarning ishlatilishi subordinatsiya (iyerarxiya) va professional etikani pasaytiradi. Natijada insonning jiddiy imidjiga putur yetishi va nutqiy madaniyatning pasayishi mumkin.

Emojilar konkret narsa va hislarni ko'rsatadi, lekin murakkab falsafiy yoki intellektual g'oyalarni yetkaza olmaydi. Ya'ni, "Adolat", "ijtimoiy mas'uliyat", "borliq falsafasi" kabi tushunchalarni faqat emojilar bilan tushuntirib bo'lmaydi.

Tilning boyligi uning sinonimlaridadir. Masalan, o'zbek tilida xursandchilikning turli darajalari bor: shodlanmoq, yayramoq, suyunmoq, mamnun bo'lmoq, ko'ngli tog'dek ko'tarilmoq, og'zi qulog'ida bo'lmoq. Lekin emoji ishlatilganda, bularning barchasi bitta jilmaygan yoki kulgan emoji belgisi bilan almashtiriladi. Natijada inson miyasi tayyor va oson tasvirga o'rganib qoladi. Vaqt o'tishi bilan kerakli vaziyatda o'z hissini so'z bilan ta'riflashga kelganda, lug'at boyligi yetmay qoladi. Aynan shu holatlar tilning qashshoqlashuviga olib keladi.

Biroq, emojilardan foydalanishni noto'g'ri deyish ham xato xulosa bo'ladi. Chunki ularning jamiyatda o'ziga yarasha o'z o'rnini bor.

Adabiyotlar tahlili

Lingvist Vyvyan Evans o'zining "The Emoji Code" asarida emojilarni "raqamli tana tili" (digital body language) deb ataydi. Uning fikricha, emojilar matndagi hissiy bo'shliqni to'ldiradi. Biroq, Gretchen McCulloch kabi tadqiqotchilar internet tilining rivojlanishi an'anaviy grammatik qoidalarining zaiflashishiga olib kelayotganini ta'kidlaydi. O'zbek tilshunosligida ham raqamli diskurs tahlili bo'yicha dastlabki ilmiy izlanishlar boshlangan bo'lib, ular asosan ijtimoiy tarmoqlar leksikasini o'rganishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, emojilar- bu zamonaviy muloqotning tabiiy evolyutsion mahsulidir. Ular tilni o'ldirmaydi, balki unga yangi, vizual bir qatlam qo'shadi. Biroq, ularning "yaxshi" yoki "yomon"ligi bizning ulardan qanday foydalanishimizga bog'liq:

Nega yaxshi desak Emojilar raqamli muloqotga "jon" bag'ishlaydi. Ular yozma nutqda yetishmaydigan tana tili, yuz ifodasi va ohangni o'rnini bosib, odamlar o'rtasidagi sovuqlikni va tushunmovchiliklarni bartaraf etadi. Ular- muloqotni insoniylashtiruvchi vositadir.

Yomon bo'lishi mumkin, agar biz so'zlar qolib, faqat belgilarga tayanib qolsak. Chunki bu "leksik dangasalik"ka olib keladi. Tilning sinonimik boyligi, sifat va ravishlarning jozibasi yo'qolishi natijasida nutq qashshoqlashadi. Bu esa fikrlash doirasining torayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mening fikrim shundaki: Emoji- bu yordamchi, lekin o'rinbosar emas. Ular matnning ma'nosini boyitishi, unga rang berishi kerak, lekin hech qachon fikrning asosi bo'lgan so'zni nutqdan siqib chiqarmasligi lozim. Biz emojilar tilida gapiradigan emas, balki boy ona tilimizda gapirib, emojilar bilan unga "tabassum" hadya etadigan avlod bo'lib qolishimiz kerak.

Ziravor (emoji) ovqatni (matnni) mazali qiladi, lekin faqat ziravorning o'zi bilan qorin to'ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Abduvahobov, A. (2022). *Virtual muloqotda lisoniy tejamkorlik va emojilarning funksional xususiyatlari. "O'zbekiston olimlari va yoshlari" ilmiy-amaliy konferensiyasi.*
2. Rahmatullayeva, Sh. (2021). *Zamonaviy o'zbek internet muloqotida noverbal vositalarning qo'llanilishi. Filologiya masalalari jurnali, Toshkent.*

3. Karimova, N. (2023). *Raqamli texnologiyalar davrida tilning o'zgarishi: Leksik qashshoqlik va emojilar simbiozi. O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари.*
4. Toshpo'latov, M. (2020). *Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik tahlili: Emoji va stikerlarning emotsional yuklamasi. Filologiya va metodika masalalari to'plami.*
5. Ismoilov, A. (2022). *Internet leksikasi va yoshlar nutqida adabiy til normalarining buzilishi masalalari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.*
6. Sattorova, G. (2023). *Emoji – zamonaviy iyeroglifmi? Raqamli muloqotda semantik transformatsiya. "Til va zamon" ilmiy maqolalar to'plami.*
7. Zokirova, S. (2021). *Noverbal muloqot vositalarining kognitiv tahlili: Emojilar va inson psixologiyasi. Psixologiya va lingvistika integratsiyasi konferensiyasi materiallari.*
8. Xudoyberdiyeva, L. (2024). *Axborot texnologiyalari ta'sirida o'zbek tili leksik qatlamining o'zgarishi: Muammo va yechimlar. Innovatsion texnologiyalar va tilshunoslik jurnali.*